

17 fevral 2026 yil. 01-06/17-son

**“TASDIQLAYMAN”  
Konimex tumani hokimi,**

**giyohvandlik vositalari va  
psixotrop moddalar ustidan  
nazorat qilish bo‘yicha tuman  
komissiyasi raisi**



\_\_\_\_R.Ro`ziyev

2026-yil 17-fevral

**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish  
bo‘yicha tuman komissiyasining yig‘ilish**

**BAYONI**

2026-yil 17-fevral

**Konimex tumani**

- Raislik qiluvchi:** - **R.Ro`ziyev**– tuman hokimi
- Ishtirok etganlar:** - Tuman hokimi o‘rinbosarlari, tuman komissiya a‘zolari, tegishli tuman muassasa, korxon va tashkilotlari rahbarlari (ro‘yxat asosida).

**K U N T A R T I B I:**

1. 2025-yilning 12 oyi davomida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiya a‘zolari tomonidan olib borilgan ishlar sarhisobi, tuman hududida sodir etilgan narkojinoyatlar tahlili.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024-yilgi PF-73-son hamda 03.11.2025-yilgi PF-207-son Farmonlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi muhokamasi.

3. Joriy yilning fevral oyida tumanda “Yoshlar orasida giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish tezkor-profilaktik tadbirlar oyligi”ni o‘tkazish to‘g‘risida.

#### **4. Navoiy viloyati hokimi rahbarligida 2026-yil 14-fevralda 12-01/11-sonli o'tkazilgan yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash haqida.**

*(R.Ro`ziyev, U.Abdurahmonov, M.Tulegenov, A.Usmanova, E.Yaxshiboyev, N.Kulatov, A.Nematov, ..., R.Ro`ziyev)*

Yig'ilishni tuman hokimi R.Ro`ziyev kirish so'zi bilan ochib, yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibiga qo'yilgan masala bilan tanishtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-son hamda "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-207-son Farmonlari qabul qilinganligi, va ushbu normativ-huquqiy hujjatlar bilan giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi ma'lum qilindi.

Shuningdek, tuman komissiya a'zolari tomonidan 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.11.2024-yilgi 759-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan milliy dastur"da belgilangan vazifalar to'laqonli ijro etilmaganligi, komissiya a'zolari yuqorida qayd etilgan normativ huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan topshiriqlarning mazmun-mohiyatini hali-hanuzgacha tushunmaganliklari va buning oqibatida komissiya faoliyati o'ta qoniqarsiz olib borilayotganligi tanqid qilindi.

Yig'ilishda, shuningdek joriy yilning o'tgan davri mobaynida qayd etilgan narkojiyatlar tahlil qilindi. Jumladan, viloyat bo'yicha 2025-yil 12 oy yakuni bo'yicha 456 (2024 yilda 392) ta giyohvandlik vositalari, psixotrop va sintetik moddalari hamda kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari bilan bog'liq holatlar aniqlangan, jami bo'lib, 20 kg 347 gramm (2024 yil 12 oy davomida 12 kg 407 gramm) giyohvandlik vositalari olinganligi shuningdek, 2025-yilning 12 oyi davomida Konimex tumanida 2 ta aniqlangan. Bundan tashqari, raislik etuvchi tomonidan yig'ilish ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024-yilgi PF-73-son hamda 03.11.2025 yilgi PF-207-son Farmonlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida sifatli bajarish yuzasidan aniq manzilli topshiriqlar berildi.

Kun tartibidagi keyingi masala yuzasidan so'zga tuman hokimining o'rinbosari, tuman komissiya raisining o'rinbosari M.Tulegenov chiqib, tuman komissiya a'zolariga joriy yilning fevral oyi davomida tumanda "Yoshlar orasida giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish tezkor-profilaktik tadbirlar oyli"ni yuqori saviyada o'tkazish yuzasidan topshiriqlarni berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish ishtirokchilarining bildirgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish

### **QAROR QILADI:**

1.Kun tartibidagi masalalar bo'yicha mas'ul rahbarlarning bergan hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha tuman komissiya a'zolarining 2025-yilning 12 oyi davomida olib borilgan faoliyati qoniqarsiz deb topilsin.

**3.Tuman ichki ishlar bo'limi (U.Abdurahmonov)ga:**

mahallalarda sodir etilayotgan har bir narkojinoyatlarning muhokama etilishini shaxsan nazorat qilib borish;

mahallalarda aholi o'rtasida keng jamoatchilikni jalb qilgan holda narkojinoyatlarni oldini olish yuzasidan aholi bilan targ'ibot tashviqot ishlarini muntazam ravishda olib borish;

tuman komissiya a'zolarining faoliyati to'g'risida komissiya raisiga muntazam ravishda tanqidiy ma'lumotlar kiritib borish topshirilsin.

**4.Tuman hokimi o'rinbosari, tuman komissiyasi raisi o'rinbosari (M.Tulegenov), tuman ichki ishlar bo'limi (U.Abdurahmonov), tuman komissiya a'zolari bilan birgalikda:**

har hafta payshanba kuni o'tkaziladigan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasidagi tadbirlarga "mahalla yettiligi", ichki ishlar va boshqa aloqador korxonalar rahbarlari va keng jamoatchilikni faol jalb qilgan holda aholida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish yuzasidan manzilli tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borsin;

har chorak yakuni bilan, mahallalarda narkojinoyatlarni oldini olish yuzasidan manzilli chora-tadbirlar dasturlarini sifatli ishlab chiqib, ularning ijrosini to'laqonli ta'minlash choralari ko'rsin;

shuningdek, quyidagi topshiriqlar o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlasin:

hududdagi narkovaziyatni sog'lomlashtirish;

joylardagi bo'limlar faoliyatini o'rganish;

aholining keng qatlami, jumladan, yoshlar va ayollar ogohligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borish;

ta'lim muassasalarida profilaktik ogohlantiruv tadbirlarini tashkil etib borish;

ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarga mas'ul bo'lgan xodimlarning giyohvandlik va narkojinoyatlar profilaktikasi borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish;

"Mahalla yettiligi" ko'magida uyushmagan yoshlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish;

narkotik moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etib, jazo o‘tayotgan yoki jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish choralarini ko‘rish;

tezkor-profilaktik oyliklar tashkil etib borish va yakuni bo‘yicha tuman komissiyasiga hisobotlar taqdim etib borish;

tuman komissiyai tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishlar, unda belgilangan topshiriqlar va ularning bajarilganligi holatini o‘rganib borish;

tumandagi narkologiya muassasalari hamda HMQOlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo‘yicha komissiya raisiga asoslantirilgan takliflarni kiritish.

#### **5.Tuman hokimi o‘rinbosari (M.Tulegenov)ga:**

har oyda kamida bir marotaba giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining yig‘ilishlarini o‘tkazib, ularda komissiya a‘zolari tomonidan olib borilayotgan ishlarni tanqidiy ko‘rib chiqilishini ta‘minlasin;

komissiya faoliyatida aniqlangan muammoli masalalarning hal etilishiga har tomonlama ko‘maklashsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024 yilgi PF-73-son hamda 03.11.2025-yilgi PF-207-son Farmonlarida belgilangan vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkillashtirsin.

#### **6.Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (E.Yaxshiboyev), tuman ichki ishlar bo‘limi (U.Abdurahmonov), Konimex tumani sport maktabi (N.Kulatov), bilan birgalikda:**

voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida narkojinoyatlar sodir etilishini oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashishda hududiy davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla hamda ta‘lim muassasalarining ichki ishlar organlari bilan uzviy hamkorligi asosida:

mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikda (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022-yildagi PQ-92-sonli Qarori asosida) yo‘lga qo‘yilgan chora-tadbirlar izchillik bilan davom ettirish, birinchi galda yoshlarning mavjud muammolarini aniqlash va ularning yechimiga asosiy e‘tiborni qaratsin;

voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish hamda ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida, ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda ularni maktab, yoshlar markazi va sport majmualarida tashkil etilgan to‘garaklarga to‘liq jalb etish, shuningdek, yoshlarni kasb yoki hunarmandchilikka yo‘naltirish orqali bandligini ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

#### **7.Tuman hokimi o‘rinbosari (M.Tulegenov);**

Tegishli korxonalar tuman komissiyasi bilan birgalikda joriy yilning fevral oyi davomida tumanda “Yoshlar orasida giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish tezkor-profilaktik tadbirlar oyligi”ni yuqori saviyada o‘tkazilishini va tadbirlarni OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta‘minlasin;

har oyda tuman komissiya a'zolarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2025-yilgi PF-207-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning sohalar va hududlar kesimida ijrosi yuzasidan hisobotlarini eshitalishini, natijadorligi bo'yicha tanqidiy muhokamalar o'tkazilishini hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga nisbatan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan ta'sir choralarini ko'rish yuzasidan tuman hokimiga takliflar kiritilishini ta'minlasin;

har oy yakunida Farmonda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish borasida qilingan aniq ishlar hamda Milliy dasturning ijrosi yuzasidan hisobotlarni viloyat hokimligiga kiritib borsin.

#### **8.Tuman komissiya a'zolari:**

har oyning 25 sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024- yilgi PF-73-son hamda 03.11.2025-yilgi PF-207-son Farmonlarida belgilangan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarib amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni qayta eslatmasiz tuman hokimligiga taqdim etib borish vazifasi topshirilsin.

9.Mazkur yig'ilish bayoni qarorining bajarilishini nazorat qilish tuman hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'anaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari M.Tulegenovva tuman ichki ishlar bo'limi U.Abdurahmonov zimmasiga yuklatilsin.

**Yig'ilishni bayonlashtirdi**

**M.Aydarov**